



IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KONSALTING XIZMATLARI SOHASINING RIVOJLANISHI

Oysha Kurbanovna

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda konsalting xizmatlarini amalga oshirish iqtisodiyotni jadal o'sishida muhim omillardan biri bo'lgan innovatsion tizimlar ya'ni, innovatsion va venchur konsalting xizmatlarning ahamiyati va shu bilan bir qatorda innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish bugungi kunda yuqori natijalar va daromadga ega bo'lishlari uchun zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: konsalting xizmatlari, innovatsion jarayonlar, venchur konsalting, modernizatsiya, diversifikatsiya.

Abstract

The implementation of consulting services in Uzbekistan is one of the important factors in the rapid growth of the economy, innovation systems, i.e. the importance of innovative and venture consulting services, as well as the commercialization of innovative ideas today. have high results and income, the importance of developing the mechanisms necessary for them is discussed.

Keywords: consulting services, innovation processes, venture consulting, internationalization, diversification.

Аннотация

реализация консалтинговых услуг в Узбекистане является одним из важных факторов быстрого роста экономики, инновационных систем, т.е. значение инновационных и венчурных консалтинговых услуг, а также коммерциализации инновационных идей на сегодняшний день. имеют высокие результаты и доход, обсуждается важность разработки необходимых для них механизмов.

Ключевые слова: консалтинговые услуги, инновационные процессы, венчурный консалтинг, интернационализация, диверсификация.

Iqtisodiyotni jadal va muvozanatli rivojlantirishni ta'minlash, chuqur tarkibiy tub o'zgarishlarni, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilishni davom ettirish muhim hisoblanadi bugungi kunda dolzaob masalardan biri hisoblanadi. Biznes yuritish uchun yanada qulay investitsiya va



ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega yuksak texnologik, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish zamon talabidir.

Jahonda konsalting xizmatlarining turli yo'nalishlarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, jumladan, mazkur xizmatning raqobatbardoshligini oshirish, tashkiliy-huquqiy shakllarini tarkib toptirish, iqtisodiy sub'ektlar yoki iqtisodiyot ("maslaxatchi-mijoz") munosabatlari o'rtasidagi vazifa va majburiatlarning tartibga solish, xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish kabi ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Konsalting xizmatlari sohasini rivojlantirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarining tadqiqi bugungi kunda dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda ham bugungi kunda 100 dan ortiq turli yo'nalishlarda konsalting firmalari o'z xizmatlarini taklif qilmoqdalar. Biroq, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifati, narxi, xizmatlar hajmi statistikasi va huquqiy asoslari belgilab berilmagan. Shu sababdan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida konsalting xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rne va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish» kabi muhim vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash, konsalting xizmatlari yo'nalishlarini kengaytirish sifatida: "menejment" (boshqaruv)ni samarali tashkil qilish, huquqiy, buxgalteriya va audit, innovatsion, investitsion, venchur, IT-konsaltingni takomillashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevraldagi «2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi 55-son Qarori, 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi 2019-2021 yillarda "O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot natijalari sifatida muayyan darajada xizmat qiladi.

Innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish, bugungi kunda tashkilot yuqori natijalar va daromadga ega bo'lishlari uchun, tashkiliy-ishlab chiqish modelini va intensiv



ravishda amalga oshirishga imkon beradigan mexanizmlarni ishlab chiqishlar kerak. Aks holda, innovatsiyalar o'zlariga halokatli ta'sir qilishi mumkin, chunki mexanizmlar (haqiqiy taktik xatti-harakatlar) birinchi navbatda innovatsiyalar portfelining mavjudligi bilan belgilanadi. Innovatsion portfel tashkilot rivojlanishining maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida, tashkilotning barcha mavjud resurslaridan foydalanishda qo'l keladi.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyalarni joriy etish shartlari, birinchi navbatda, tashkilot tomonidan mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga tezlik bilan moslashish imkoniyatlari sifatida tushuniladi. Ushbu shartlar kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini yaratish yoki takomillashtirish uchun zarur bo'lib, faoliyat davomida innovatsiyalarning to'liq integratsiyasini ta'minlaydi. Bu esa, fundamental bilimlar va professional malakalarsiz amalga oshirilmaydigan innovatsion boshqaruv jarayonlari jiddiy intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Fundamental bilimlarning ahamiyati shundan iboratki, har qanday soha - zamonaviy tizim konsepsiyalariga asoslanib, fanlararo bilim sohasi bo'lgan zamonaviy tizim tushunchalarning integratsiyasiga asoslanadi.

Bugungi kunda innovatsiyalarni joriy qila oladigan, fundamental bilimlar va professional malakaga ega kadrlarni va g'oyalarni qidirish, ko'plab kompaniyalar va tadbirkorlar uchun odatiy holga aylangan. Tor doiradagi mutahassis-maslahatchilarga (sog'liqni saqlash, farmatsevtika, genetika, mudofaa, kosmonavtika, yadro fizikasi kabi maxsus sohalarda), kuchli bilimga ega bo'lgan, hamda turli yangiliklarni yaratishga intilishi bo'lgan insonlarni jalb qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Innovatsiyalarga bo'lgan intilish va foydani maksimallashtirish buyurtmachi-mizoj (davlat yoki tadbirkor) uchun muhim jihatlardan hisoblanadi. Aksariyat hollarda yaratilgan innovatsiyalarni moliyalashtirishda, amaliyotga joriy etishda va ularga egalik huquqini qo'lgan kiritish kabi masalalarda ma'lum darajada muammolar yuzaga keladi. Aynan shunday muammolarni yechishda innovatsion konsalting xizmatlarni o'z xizmatlarni taklif etadilar.

Innovatsiya konsalting infratuzilmasida axborot va huquqiy konsalting, intellektual mulk sohasida konsalting, ilm-fanni rivojlantirish texnologiyalarni uzatish bo'yicha konsalting, ishlab chiqarish, texnologik, moliyaviy, savdo va xodimlar konsaltingini ham o'z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga innovatsiya jarayoni bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, konsaltingning ahamiyatini va birinchi navbatda, yangi tushunchalar va innovatsiyalarni amaliyotga tadbqiq etish jarayonlarida "vositachi" rolini kuchaytiradi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion jarayonni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ta'minlash quydagilarga bog'liq:



- ilmiy yangiliklarni maqsadli yo'naltirish maqsadida, moliyaviy manbaalarni izlab topishga;
- ishlab chiqarishni devirsifikatsiyalashga;
- innovatsion jarayonning infratuzilmasini takomillashtirishga;
- davlatdagi iqtisodiy-siyyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarga;
- mahalliy va xalqaro bozordagi talab darajasiga va boshqalar.

Innovatsion tizim innovatsion mahsulotni yaratadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagilar taklif qilinadi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi tuman markazlarida innovatsion va venchur konsalting faoliyatini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston savdo-sanoat palatasi qoshidagi "Innovatsion va venchur markazi"ni ochish, ushbu markazlarga innovatsion, investitsion va venchur konsalting xizmatlarni taklif etuvchi konsalting firmalarni jalb etish va ularga manfaatli takliflarni taqdim etish;

venchur konsalting firmalarining moliyaviy manbasini mahalliy va xorijiy jismoniy, yuridik shaxslarning bo'sh turgan kapitallarini jalb qilish orqali shakllantirish.

Ushbu taklifning amaliyotga tadbqiq qilinishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan yoki korxona faoliyatini takomillashtirish bo'yicha sifatli va malakali maslahatga muhtoj bo'lgan fuqarolarga amaliy maslahatlar beriladi; hududlarda investitsiya mablag'larini maqsadli yo'naltirishga yordam beradi; davlat organlarining faoliyatini jamiyat va davlat uchun zarur bo'lgan vazifalarni hal etishga qaratishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Pardaev M.Q. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari. Monografiya. -T.: "Navruz", 2014.-264 b.;
2. Zaynalov J.R. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati // Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – SamISI, 2015. B. 229-231;
3. Urazov K.B. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari // «Servis» jurnali – 2019. №1- B. 107-114;
4. Mirzaev Q.J., Pardaev M.Q. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-Moliya" 2014. – 382 b.;